



DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTINING ROLI

D.O.Botirov

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6341250>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17 – fevral 2022

Ma'qullandi: 22 – fevral 2022

Chop etildi: 27 – fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

*Demokratiya, jamoa,
jamoatchilik nazorati
instituti, hokimiyat, davlat
va respublika.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola jamoatchilik instituti to'g'risida tushuncha berish va bu institutning bajaradigan vazifalari haqida batafsil ma'lumot beribgina qolmasdan, davlat hokimiyati va boshqaruvi samaradorligini oshirishda jamoatchilik nazorati institutining rolini tahlil qilish va aniqlash kabi masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari davlatda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish kabi islohotlarni amalga oshirishda jamoatchilik institutining ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi samaradorligini oshirishda jamoatchilik nazorati institutining roli bog'liq bo'lgan muammolar doimo jamiyatshunos olimlarning izlanish obyekti bo'lib kelgan. Jamoatchilik boshqaruvi demokratiya va xalq hokimiyatchiligining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish orqali fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini muhofazasini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda jamoatchilik tashkilotlari asosiy rol o'ynaydi¹. Jamoatchilik tashkilotlariga

nodavlat – notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, turli kasaba uyushmalari, mahalla va hokazolarni kiritishimiz mumkin. Jamoatchilik boshqaruvi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etilishini hamda qonun hujjatlari talablariga davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan og'ishmay rioya qilinishini, ular oldida turgan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bois kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan yurtimizda jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirish, uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar

¹ Nazarov Q. umumiy tahriri ostida. Fuqorolik jamiyati institutlari faoliyatida ish olib borishning samarali usul va uslublaridan foydalanish" mavzusidagi seminar – trening materiallari. Toshkent. 2009, 34-beti



bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. Ijtimoiy boshqaruvning rivojlanishi tarixi va san'atining qanday va qachon vujudga kelganini hech kim aniq ayta olmasa kerak. Ammo qayerda odamlar jamoa yoki guruh bo'lib yashasalar, boshqaruvga ehtiyoj tug'ilgan. Chunki o'sha davrlarda boshqaruv turli ko'rinishlarda uchragan.

Birinchidan, odamlar guruh bo'lib har xil jamiyatda yashaganlarida albatta, guruhda o'ziga xos tartib o'rnatishgan va guruh a'zolarini shu tartibga bo'ysunishga chaqirishgan. Bu holatdan boshqaruvning ijtimoiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, odamlar o'sha guruhlarda mehnat taqsimlashgan. Bu holatdan boshqaruvning iqtisodiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin.

Uchinchidan, odamlar guruhlarda yashaganlarida o'zlarini dushmanlardan, yovvoyi hayvonlardan himoya qilishi kerak bo'lgan. Bu holatda boshqaruvning mudofaa holatini ko'rishimiz mumkin.

Yillar va zamonlar o'tgani sayin dunyo bo'yicha ijtimoiy boshqaruv amaliyotida juda ham ko'p tarixiy shaxslar tomonidan ulkan ishlar amalga oshirilgan va bir necha boshqaruv inqiloblari yuzaga kelgan. Jamoatchilik boshqaruvining dastlabki kurtaklari sifatida demokratik qarashlarni keltirsak bo'ladi. Jamoatchilik boshqaruvi tushunchasi dastlab demokratik qarashlarning vatani bo'lmish Qadimgi Rim va Yunonistonda yuzaga kelgan. Chunki demokratiyaning asosini ham xalq, jamoatchilik boshqaruvi tashkil etadi. "Demokratiya" so'zi grekcha so'z bo'lib "xalq hokimiyati" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, demokratiyaning asosiy belgisi alohida olingan u yoki bu mamlakatda xalqni oliy hokimiyatning manbai ekanligini amalda e'tirof etishdir.

Jamoatchilik boshqaruv tizimi va nazorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar doimo jamiyatshunos olimlarning izlanish ob'ekti bo'lib kelgan. Ammo boshqaruv va nazorat faoliyati asosan yuqoridan amalga oshiriladigan davlat nazorati nuqtai nazaridan o'rganilgan. Bugungi kunga kelib nazorat faoliyatini faqat yuqoridan bo'lgan davlat nazorati sifatida emas, balki tizimli xarakterda bo'lgan davlat va jamiyat nazorati sifatida o'rganish boshlandi.

Davlatning ijtimoiy sohadagi barcha masalalarni hal etish vazifasini o'z zimmasiga olishi jamiyatda davlat ishtirokining oshib ketishi, bu sohaga davlat mablag'larining ko'p qismi sarflab yuborilishi, fuqarolarning faolligini susaytirib qo'yish xavfini oshirib yuboradi². Shu sababli,

1) davlatning o'z vazifalarining bir qismini fuqarolik jamiyati institutlari (fuqarolar yig'inlari, nodavlat notijorat tashkilotlari)ga o'tkazishi;

2) fuqarolarning faolligini oshirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda uning institutlarini rivojlantirish;

3) biznesning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, byudjet xarajatlarini kamaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi samaradorligini oshirishda, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida jamoatchilik nazorati institutining roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Jamoatchilik nazorati instituti dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarishi va uni

² Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006, 56-beti.



mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlarini asosida paydo bo'ldi. Jamoatchilik instituti tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratini, avvalo, jamoat tashkilotlari – siyosiy partiyalar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlar faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik instituti jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlangani, balki davlat organlari faoliyatida ustivor ahamiyatga ega ekanligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Hukumat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga berilayotgan e'tibor, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni yanada mustahkamlanayotganidan dalolat. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Jamoatchilik instituti jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarini qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar

mavjuddir. Manfaatlar guruhlari ana shu manfaatlarining ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarining guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni yetkazib berib turishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, davlat hokimiyati va boshqaruvi samaradorligini oshirishda jamoatchilik nazorati institutining roli, o'z navbatida, qonun hujjatlarining ustuvorligini ta'minlashda, ularning amaliyotga to'liq tadbiiq etilishida, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda, ular tomonidan turli xil huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishda, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini takomillashtirishda, tadbirkorlikni rivojlantirishda, sog'lom raqobat muhitini yaratishda, eng muhimi, fuqarolarning farovon turmush tarzini kuchaytirish tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi. Jamoatchilik nazorati bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan u yoki bu qonun talablarining fuqarolar yig'ini hududida ijrosini jamoatchilik guruhlari tuzib o'rganish, natijalari bo'yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish tartibida yoki mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish orqali ham amalga oshirib kelinmoqda. Umuman aytganda, davlat hokimiyati va boshqaruvi samaradorligini oshirishda jamoatchilik nazorati institutining roli beqiyosligini,



olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni

modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish kabi islohotlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.ning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.<http://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>.
2. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.// Xalq so'zi, 2002-yil 30-avgust.
3. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.Toshkent:O'zbekiston,2010.
5. Nazarov Q. umumiy tahriri ostida. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ish olib borishning samarali usul va uslublaridan foydaanish" mavzusidagi seminar –trening materiallari. Toshkent. 2009.
6. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.